

UDC: 347.77(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-2940-8718

MUALLIFLIK HUQUQI MUHOFAZASINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI: BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI MISOLIDA

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
“Intellectual mulk huquqi” kafedrası dotsenti v.b.,
e-mail: abдумуминйулдасhev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mualliflik huquqi obyektlaridan telekommunikatsiya tarmoqlarida foydalanishda uni muhofazasini ta'minlash masalalari haqida so'z boradi. Xususan, bu yo'nalishda blokcheyn vositalarining tutgan o'rni, himoyalash usullari va texnik talablari hamda bu yo'nalishdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish jarayonlari xususida bayon etilgan. Shuningdek, maqolada bu yo'nalishdagi jahon tajribasi, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining “internet shartnomalari”dagi o'rni, internet tarmog'ida mualliflik huquqi himoyasining texnik vositalari hamda O'zbekiston qonunchiligi normalari va amaliyoti haqida bayon etilgan. Mualliflik huquqi obyektlarini himoya qilishda blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning samarali vosita ekanligi va uni qo'llash bilan bog'liq masalalar keng muhokama qilingan. Zero, telekommunikatsiya tarmoqlari va internetda nafaqat mualliflik huquqini ta'minlash, balki ushbu sohani rivojlantirish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda ushbu tarmoqlardan keng foydalanish, undagi axborot xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tizim (blokcheyn) ning eng muhim jihati undagi raqamli ma'lumotlarni buzilmasligi bilan xarakterlanishi, ya'ni tizimning ishonchliligi pul operatsiyalarini va jismoniy shaxslar, korporatsiyalar o'rtasidagi axborot almashinuvlari samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutishligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqi, blokcheyn, telekommunikatsiya tarmog'i, internet tarmog'i, texnik vosita, BIMT, xalqaro shartnoma, huquqiy himoya, mutlaq huquq, axborot almashinuvi.

СОВРЕМЕННЫЕ СПОСОБЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОХРАНЫ АВТОРСКОГО ПРАВА: НА ПРИМЕРЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙНА

Юлдашов Абдумумин Абдугопирович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента кафедры «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения охраны объектов авторского права при их использовании в сетях телекоммуникаций. В частности, описана роль блокчейна в этом направлении, методы и технические требования к его защите, а также процессы регулирования правоотношений в этом направлении. Кроме того, в статье описываются мировой опыт, роль Интернет-контрактов Всемирной организации интеллектуальной собственности, технические средства защиты авторских прав в сети Интернет, а также нормы и практика законодательства Узбекистана. Обосновано, что использование технологии блокчейн в защите объектов авторского права является эффективным инструментом, и широко обсуждены вопросы, связанные с ее применением. Важно обеспечить не только авторское право в сетях телекоммуникаций и Интернет, но и развитие этой сферы, широкое использование этих сетей при предоставлении государственных услуг, безопасность содержащейся в них информации. В то же время было отмечено, что наиболее важный аспект системы блокчейна характеризуется тем, что цифровая информация в ней является целостной и незыблемой, то есть надежность системы играет важную роль в повышении эффективности денежных операций и обмена информацией между физическими лицами, корпорациями.

Ключевые слова: авторское право, блокчейн, сеть телекоммуникации, сеть Интернет, техническое средство, Всемирная организация интеллектуальной собственности, международный договор, правовая помощь, исключительное право, информационный обмен.

MODERN WAYS OF ENSURING COPYRIGHT PROTECTION: ON THE EXAMPLE OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY

Yuldashov Abdumumin Abdugopirovich,

Acting Associate Professor of
the Department of Intellectual property Law of
Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. The article deals with the issues of ensuring the protection of copyright objects when using them in telecommunication networks. In particular, the role of blocking means in this direction, methods and technical requirements for protection, as well as the processes of regulation of legal relations in this direction are described. In addition, the article describes the world experience in this direction, the role of the "Internet contracts" of the World Intellectual Property Organization, technical means of protecting copyright on the Internet, as well as the norms and practices of the legislation of Uzbekistan. It is substantiated that the use of blockchain technology in the protection of copyright objects is an effective tool, and issues related to its application are widely discussed. After all, it is important to ensure not only copyright in telecommunication networks and the Internet but also the development of this area, the widespread use of these networks in the provision of public services, the security of the information they contain. Furthermore, it is noted that the most important aspect of this system (blockchain) is characterized by the fact that digital information in it is integral and unshakable, that is, the reliability of the system plays an important role in increasing the efficiency of monetary transactions and information exchange between individuals and corporations.

Keywords: copyright, blockchain, telecommunication network, Internet, technical means, WIPO, international treaty, legal assistance, exclusive right, information exchange.

Globalashuv jarayonlarining tez sur'atlarda rivojlanishi ijodkorlarni o'z asarlariga bo'lgan mutlaq huquqlari muhofazasini yetarli darajada ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rishga undamoqda. Ma'lumki, so'nggi yillarda insonning axborot va ma'lumot olishga bo'lgan ehtiyoji har qachongidan ham yuqori darajaga chiqqan. Ayniqsa, butunjahon internet va telekommunikatsiya tarmoqlarining keng rivojlanishi natijasida bu bilan bog'liq jarayonlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, bu kabi jarayonlarni mualliflik huquqi obyektlarining ishtirokisiz tasavvur etish qiyin. Bunda mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Nazariya va amaliyotga ko'ra asarlardan foydalanish hamda ularni fuqarolik muomalasiga boshqacha tarzda kiritish bo'yicha nazoratning huquqiy mexanizmlari sifatida shartnoma asosida boshqarish va asarlarni himoyalashning texnik usulini kiritish mumkin. Internet tarmog'ining keng taraqqiy etishi natijasida mualliflik huquqi obyektlaridan ruxsatsiz tarzda foydalanish holati keskin ravishda oshib ketganligi barchaga ayon. Agarda biz internetni bugungi kunda in-

son hayotini yengillashtirishga qaratilgan vosita deb bilgan holda uni bir qator salbiy jihatlarini ham eslab o'tsak-da, biroq aynan undan eng ko'p "zarar" mualliflik huquqi yaratuvchilariga (adabiyot va noshirlik, musiqa va teatr, kino, radio, televideniye, fotografiya asarlari, EHM va ma'lumotlar bazalari, vizual va grafik ishlar, reklama xizmatlari) nisbatan ekanligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, texnologiya va huquq o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solinishi juda qiyin masala hisoblanadi.

So'nggi paytlarda mualliflik huquqiga taalluqli soha vakillari o'rtasida blokcheyn texnologiyasi samarali vosita ekanligi va uni qo'llash bilan bog'liq masalalar keng muhokama qilinmoqda. Ma'lumki, mualliflik huquqi obyektlarining muhofazasi global xarakter kasb etmoqda. Ya'ni ijodkor o'z asarini bir davlat hududida muhofaza qilganligi bugungi kun uchun yetarli deb bo'lmaydi. Zero, axborot tashuvchi vositalar va axborot uzatishlar doirasi kengayib bormoqda. Shu o'rinda blokcheyn texnologiyasi mazmuniga to'xtalib o'tsak. "Blokcheyn – bu markazlashtirilmagan ma'lumotlar bazasi bo'lib, u o'zida undan ro'yxatdan o'tgan barcha ishtirokchilar

ma'lumotlari (o'tkazmalari) haqida ma'lumotlarni alohida "zanjir" shaklida saqlash imkonini beradi" [1].

Angliya bankining fikricha, "blokcheyn – bu bir-birini bilmaydigan insonlarga ishonchli tarzda va birgalikda foydalanish imkonini beradigan texnologiyadir" [2].

Dunyoda birinchi blokcheyn bitkoini texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2009-yilda yaratilgan. Dastlab unga kriptovalyutani boryo'g'i qo'shimcha bir elementi sifatida urg'u berilgan va u bitcoin asoschisi Satoshi Nakamoning asarlarida ham unga to'liq ta'rif berilgan. Uni aniqroq tarzda mavjud texnik mexanizmlarning ixtirochilik kombinatsiyasi sifatida tushunish mumkin. Aslida uni texnik komponentlari ilk marotaba 1980–1990-yillardagi akademik tadqiqotlarda paydo bo'lgan.

Mazkur tizimning eng muhim jihati undagi raqamli ma'lumotlarni buzilmasligi bilan xarakterlanadi. Ushbu tizimning ishonchliligi pul operatsiyalarini va jismoniy shaxslar, korporatsiyalar o'rtasidagi axborot almashinuvlarining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutgan. XX asrning oxirgi o'n yilligida mualliflik huquqi obyektlari raqamlashtirilishi natijasida qayta tarzda materiallashtirilgan jarayonlari boshlangan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib ushbu jarayon (datafikatsiya) o'zining yuqori darajasiga chiqdi. Raqamlashtirish jarayonlarining bu darajada tezlashishi ilgari moddiy obyektlarga asoslangan mualliflik huquqining huquqiy bazasiga jiddiy zarba berdi. Shunisi aniqki, raqamli aktivlardan oson tarzda nusxa ko'chirish imkoni mavjud.

Ma'lumki, barcha turdagi telekommunikatsiya tarmoqlarining asosiy vazifasi axborotni yetkazib berishda ifodalanib, bunda asosiy o'rinni, albatta, internet tarmog'i egallaydi. U. V. Zinina ko'ra, internet tarmog'idagi intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish muammosi quyidagi sabablarga ko'ra murakkab hisoblanadi:

1. Huquqbuzarliklar nafaqat internetda, balki mobil va radio telefon tarmoqlarini o'z ichiga olgan boshqa axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarida ham sodir bo'ladi.

2. Internet tarmoqlaridan foydalangan holda quyidagi turli xil huquqbuzarliklar sodir etiladi:

– plagiat;

– intellektual mulk huquqlari obyektlarining noqonuniy savdosi;

– onlayn-do'konlar orqali kontrafakt mahsulotlar bilan savdo qilish.

3. Huquqbuzarliklar obyekti sifatida intellektual mulkning turli obyektlari hisoblanishi mumkin.

4. Huquqbuzarliklar transmilliy xarakterga ega hisoblanadi.

5. Ko'rib chiqilayotgan huquqbuzarliklar ko'pincha quyidagi boshqa xavfli harakatlarni yuzaga keltiradi:

– zararli (xavfli virusli) dasturlarning tarqalishi;

– shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash qoidalarini buzish;

– spam dasturlar va fayllarning tarqalishi va boshqalar [3].

Himoyaning texnik vositalari – bu dasturiy qurilmalar yordamida elektron hujjatlardan foydalanish va foydalanishni nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ko'pincha himoyaning texnik vositalari nusxa ko'chirishning oldini olish yoki cheklash uchun ishlatiladi. Himoyaning texnik vositalari turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. DVD disklarni takrorlovchi moslamaga hududiy kodlanmagan dunyoning boshqa hududida ishlab chiqarilgan disklarni ishlamasligi yoki litsenziyalik kontentdan yuklab olingan musiqani uchinchi qurilmagan yozib olinmasligi bunga misol bo'ladi. Ko'pincha "himoyaning texnik vositalari" atamasi o'rniga "elektron hujjatlarga nisbatan huquqlarni boshqarish" tushunchasi qo'llanadi [4].

Mualliflik huquqi obyektlarini texnik vositalar orqali himoya qilish hozirgi kunda har doimgidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ekspertlarning tahliliga ko'ra, 2022-yilga kelib, raqamli muhitdagi "qaroqchilik" natijasida yetkaziladigan zarar miqdori 856 mlrd AQSh dollariga yetishi kutilmoqda [5]. Shuni ta'kidlash lozimki, 1996-yilda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hamda tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar tomonidan muallif va huquq egalari asarlarini raqamli muhitda himoyasini ta'minlash maqsadida 1996-yil 20-dekabrda "Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi" hamda "Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartno-

masi” qabul qilindi [6]. Ma’lumot o’rnida qayd etish lozimki, O’zbekiston 2019-yil 16-fevral sanasida yuqoridagi ikkita xalqaro shartnomaga qo’shilgan [7]. “BIMTning mualliflik huquqi bo’yicha shartnomasi”ning 11-moddasiga ko’ra, ahdlashuvchi tomonlar mazkur shartnoma yoki Bern konvensiyasi bo’yicha o’z huquqlarini amalga oshirish munosabati bilan mualliflar foydalanadigan mavjud texnik vositalarni chetlab o’tishdan va o’z ijodiga ruxsat bermagan harakatlarni cheklashga qaratilgan tegishli huquqiy himoya va samarali vositalarni ta’minlaydilar [8]. Aynan ushbu mazmundagi norma turdosh huquq subyektlari bo’lgan ijrochilar va fonogramma tayyorlovchilarga nisbatan qo’llanilishi bo’yicha “Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo’yicha shartnomasi”ning 18-moddasidan o’rin olgan [9].

Ahamiyatli jihati, O’zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to’g’risida”gi Qonuni 63-moddasida ijodiy asarlarni himoya qiluvchi texnik vositalar haqida so’z yuritilgan. Xususan, “asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e’tirof etiladi” [10]. Aynan ushbu normani Rossiya Federatsiyasining mualliflik huquqiga doir asosiy qonunining 481-moddasida ham ko’rishimiz mumkin [11]. Shuni ta’kidlash kerakki, texnik vositalardan chetlab o’tishga harakat qilishni cheklashga qaratilgan qoidalar BIMTning yuqoridagi “internet shartnomalari”ni imzolagan davlatlar milliy qonunchiligidan o’rin olgan. AQSh ushbu qoidani birinchi bo’lib, o’z qonunchiligiga kiritgan bo’lib, 1998-yildagi mualliflik huquqi qonunidan, 2001-yilda esa mualliflik huquqi bo’yicha Yevropa ittifoqi direktivasidan o’rin olgan [12]. AQShda mazkur cheklovni buzgan shaxslar fuqarolik va jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Yuqoridagi ikki xalqaro hujjatning “internet shartnoma” deb yuritilishiga asosiy sabab, aynan ushbu tarmoqning keng taraqqiy etishi va ijtimo

moiy hayotning barcha jabhalariga kirib borishi bilan bog’liqdir. Shu nuqtayi nazardan ham XX asrning 90-yillariga kelib, mualliflik huquqini nafaqat boshqa telekommunikatsiya tarmoqlarida, balki internetda ham muhofaza qilish zaruriyati paydo bo’ldi. Shu o’rinda telekommunikatsiya tarmoqlari sirasiga qaysi aloqa-axborot texnologiyalari kirishini ta’kidlash joiz. Telekommunikatsiya tarmoqlari sirasiga quyidagilar kiradi:

- kompyuter tarmoqlari;
- telefon tarmoqlari;
- radio tarmoqlar;
- televizion tarmoqlar.

Yuqoridagi xalqaro “internet shartnomalar”ning qabul qilinishi muallif va huquq egalari-ga muhim bo’lgan himoya vositalari berish orqali ularning mutlaq huquqlarini mustahkamlanishiga erishildi. Ushbu qoidadan foydalangan holda mualliflar o’zlarining asarlariga nisbatan turli darajadagi himoyaning texnik usullarini qo’llay boshlashdi. Intellektual mulkda, xususan mualliflik huquqida doimiy ikkita qarama-qarshi fikr mavjud bo’lib, ulardan biri intellektual mulkda mutlaq huquqdan to’laqonli foydalanish tarafdori bo’lsa, ikkinchi toifa esa intellektual mulk jamiyat tomonidan foydalanish uchun ochiq bo’lishligi kerak degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, ikkinchi toifa vakillarining fikriga ko’ra, himoyaning texnik vositalari tijoriy nusxa ko’chirish uchun kuchsiz bo’lib, aksincha ilmiy-tadqiqot yoki shaxsiy maqsadida foydalanish uchun esa qattiq cheklovlarni qo’ygan. Ushbu fikr tarafdorlari ko’rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bu cheklovlar jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini, bu orqali esa ularning ilm olishga, madaniyat va san’at yutuqlaridan foydalana olmasligini keltirib chiqarishini ta’kidlashadi. Biroq qayd etish lozimki, BIMT tomonidan ayni shu maqsadda 2013-yil 27-iyunda “Ko’zi ojiz, ko’rishda nuqsoni bo’lgan va bosma axborotni idrok etishda boshqa jihatdan qobiliyati cheklangan shaxslarning nashr etilgan asarlardan foydalanishini yengillashtirish to’g’risidagi Marokkash shartnomasi” qabul qilingan [13].

Telekommunikatsiya tarmoqlarida nafaqat mualliflik huquqini ta’minlash, balki ushbu sohani rivojlantirish, davlat xizmatlarini ko’rsatishda ushbu tarmoqlardan keng foydalanish, undagi axborot xavfsizligini ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, so’nggi

yillarda O'zbekistonda ham axborot xavsizligini ta'minlash, zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarini ijtimoiy hayotga keng targ'ib etish borasida zarur bo'lgan amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan, axborot sohasida yagona davlat siyosati ro'yobga chiqarilishining samaradorligini oshirish, telekommunikatsiya, axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi nazorat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4024-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya tashkil etildi [14].

Mazkur qaror bilan Inspeksiyaning asosiy vazifalariga qatoriga ilk marotaba fonogrammalar, audiovizual asarlar, EHM uchun dasturlarni tarqatishda mualliflik huquqlariga rioya etilishi bo'yicha vakolatlar (o'rganish, monitoring qilish, tekshirish, xulosalar tayyorlash) hamda internet tarmog'ida mualliflik huquqi obyektlari noqonuniy tarqalishini (barchaning e'tiboriga yetkazilishini) bartaraf etish choralari ni ko'rish kiritildi. Axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son qarori bilan yuqoridagi inspeksiya faoliyat qaytadan tashkil etildi. O'zkomnazoratga qo'shimcha vazifa sifatida axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda xavfsiz ma'lumot almashishni ta'minlash belgilandi. Shu o'rinda xavfsizlik atamasini nafaqat texnik jihat nuqtayi nazaridan, balki mualliflik huquqi yo'nalishi jihatidan ham tushunish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zkomnazorat o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda huquqiy ta'sir choralari ni qo'llash vakolatini berish lozim. Zero, bugungi kunda internet tarmog'ida intellektual mulk, xususan, mualliflik huquqi obyektlaridan ruxsatsiz tarzda foydalanish juda ham ko'p. Agarda ilgari intellektual mulk agentligi va O'zkomnazorat tomonidan audiovizual asarlarni, fonogrammalarni va EHM uchun yaratilgan dasturlarni takrorlash faoliyati hamda fonogrammalarni tayyorlash faoliyati yuzasidan tegishli vakolatlari (litsenziya, o'rganish, monitoring o'tkazish) mavjud bo'lgan bo'lsa,

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi "Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6044-son Farno ni bilan yuqoridagi 2 ta faoliyat uchun 2021-yil 1-yanvardan boshlab litsenziya berish tartibi bekor qilingan. Bu esa o'z-o'zidan mualliflik huquqi yo'nalishida bugungi kunda huquqbuzarliklarning oshishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 2019-yilda Rossiya Federatsiyasida sudning qarori bilan intellektual mulk huquqlarini buzganlik uchun 878 ta sayt faoliyati to'xtatilgan [15].

Hozirgi kunda, ayniqsa Covid-19 pandemiyasi sharoitida axborot uzatuvchi tarmoqlardan foydalanish doirasi juda ham kengayib bormoqda. Bu yo'nalishda, albatta, xavsizlik va himoya nuqtayi nazaridan tegishli chora-tadbirlarni ko'rish talab etiladi. Huquqni himoya qilish uning muhofaza qilinishi va ta'minlanishining eng muhim omillaridan biridir. Amaliyotga ko'ra, har qanday huquq himoya qilish mexanizmi bilan mustahkamlangan bo'lsagina, uni amalga oshirish mumkin [16].

Bugungi kunda jahonda mualliflik huquqi obyektlarini blokcheyn vositasida himoya qilishga qaratilgan "Proof of Existence", "Emernotar", "Deponent" kabi bir qator tizimlar mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, blokcheyn vositasiga kiritilgan axborotga biron-bir o'zgartirish kiritish imkoniyati mavjud emas. Zero, ushbu axborot yoki ma'lumot tegishli kiritilgan vaqt bilan xotiraga olinadi. Bu yo'nalishdagi xorijiy va milliy tajribaga qaraydigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasida allaqachon bu yo'nalishda amaliy qadamlar tashlangan. Xususan, Rossiya intellektual mulk markazi (RSIS) o'z bazasida IPCHain nomli blokcheyn-platformasini yaratgan. O'z navbatida, intellektual mulk sohasidagi vakolatli davlat organi – Rospatent ushbu yo'nalishda o'z platformasini yaratishi va bu platforma asosiy blokcheyn vositasiga aylanishi lozimligini ta'kidlab kelmoqda. Huquq egalari va mualliflarning fikricha, agarda internet maydonlar (platformalar) ga nisbatan javobgarlik kuchaytirilmasa, bu kabi blokcheyn tarmoqlari samarasiz bo'lib qolaveradi [17]. Shuni ta'kidlash kerakki, intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni soha vakillari fikrlarini inobatga olgan holda kiritish maqsadga muvofiq [18].

Umuman olganda, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar muhofazasini ta'minlash bo'yicha aniq o'ylangan va mustahkam davlat siyosatini ishlab chiqish talab etiladi [19]. Bunda, albat, texnik jarayonlar bilan bog'liq jihatlarni ham ko'zdan qochirmaslik talab etiladi. Zero, bugungi kunda texnik vositalar mualliflik huquqi obyektlarining ajralmas qismiga aylanib ulgur-gan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishni nazorat qiluvchi, muallif, turdosh huquqlar egasi yoxud asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarning boshqa egasi tomonidan ruxsat etilmagan harakatlar amalga oshirilishining oldini oluvchi yoki ularni cheklovchi har qanday texnik qurilmalar yoxud ularning tarkibiy qismlari mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalari deb e'tirof etiladi. Asarlarga yoki turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan:

- asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanishga doir mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalarining qo'llanilishi yo'li bilan belgilangan cheklashlarni olib tashlashga qaratilgan harakatlarni ushbu Qonun 63-moddasida ko'rsatilgan shaxslarning ruxsatisiz amalga oshirishga;

- har qanday qurilmani yoki uning tarkibiy qismlarini tayyorlashga, tarqatishga, prokatga berishga, vaqtinchalik tekin foydalanish uchun berishga, import qilishga, reklama qilishga, ulardan tijorat maqsadida foydalanishga yoxud xizmatlar ko'rsatishga, agar bunday harakatlar natijasida mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni himoya qiluvchi texnika vositalaridan foydalanish mumkin bo'lmay qolsa yoki bunday texnika vositalari ko'rsatilgan huquqlarning lozim darajada himoya qilinishini ta'minlamasa, yo'l qo'yilmaydi.

Telekommunikatsiya tarmoqlarida mualliflik huquqini himoya qilishni yanada takomillashtirish bo'yicha ishlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirish lozim:

- mualliflik huquqidagi shartnomaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish;

- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish institutini takomillashtirish;

- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning yangi obyektlarini huquqiy muhofaza qilishning yangi tartiblarini joriy etish;

- mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish;

- xalqaro shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini yaratish.

Shuningdek, mualliflik huquqini buzganlik uchun javobgarlikni belgilash bo'yicha tajribasi hamda bugungi kunda telekommunikatsiya tarmog'i orqali sodir etilayotgan mualliflik huquqini buzish holatlari keng uchrayotganligi bu yo'nalishdagi amaldagi jinoyat qonunchiligimizda nazarda tutilgan normalarni qaytadan ko'rib chiqish va uni jahon tajribasidan kelib chiqib, muvofiqlashtirish talab etiladi. Xususan, Jinoyat kodeksida mualliflikning o'zlashtirilgani uchun hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning buzilganligi uchun alohida moddalarni kiritish lozim. Shu bilan birga, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik choralari oshirish lozim [20]. Mutaxassislar fikricha, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga texnik vositalardan noqonuniy foydalanilganlik uchun javobgarlikni belgilovchi maxsus normalar kiritilishi kerak [21].

Yuqoridagi takliflar bo'yicha ishlarni to'g'ri va tizimli tarzda yo'lga qo'yilishi, o'ylaymizki mualliflik huquqini himoyasini ta'minlashga bu orqali esa ijodkorlar mehnati uchun tegishli haqlarni to'lanishiga hamda mamlakatimizda madaniyat va san'atni rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, telekommunikatsiya tarmog'ida mualliflik huquqlari himoyasini ta'minlash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari hamda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish zarur ahamiyat kasb etadi. Mualliflik huquqi obyektlarini muhofaza qilishga qaratilgan texnologiyalarning amaliyotga joriy etilishi intellektual mulk huquqlarini boshqarishga ham jiddiy ta'sirini ko'rsatishi bilan birga, ushbu yo'nalishdagi qonuniyatlarni ham o'zgartirishi tabiiydir.

REFERENCES

1. Blockchain technology: what you need to know in 11 cards. Available at: <https://trends.rbc.ru/trends/industry/5f05c0a79a7947aac5c7577a/>.
2. Deloitte. Available at: <https://www2.deloitte.com/content/dam/Deloitte/xe/Documents/technology/Blockchain.pdf/>.
3. Available at: <https://iq.hse.ru/more/media/zashita-prav-intellektualnoj-sobstvennosti/>.
4. Protection of intellectual property rights on the Internet. Available at: www.drm.info/.
5. Otchet «Ekonomicheskiye posledstviya ot rasprostraneniya kontrafaktnoy i piratskoy produkcii», podgotovlenniy issledovatel'skoy firmoy Frontier Economics po zakazu Biznes-initsiativi po borbe s piratstvom i kontrafaktnoy produkciyey (BASCAP) Mejdunarodnoy trgovoy palati (ICC) i Mejdunarodnoy assotsiatsii po tovarnim znakam (INTA) [Report "Economic Impact of Counterfeit and Pirate Products" by the research firm Frontier Economics, commissioned by the Business Initiative to Combat Piracy and Counterfeit Products (BACCAP) of the International Chamber of Commerce (ICC) and the International Trademark Association (INTA)]. Available at: http://www.inta.org/Communications/Documents/2017_Frontier_Report.pdf/.
6. WIPO-Administered Treaties. WIPO administers 26 treaties including the WIPO Convention Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/>.
7. Qonunhujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 16.02.2019, no. 03/19/520/2626; 16.02.2019, no. 03/19/519/2625.
8. Contract WIPO Copyright. Available at: <https://docs.cntd.ru/document/901817956/>.
9. World Intellectual Property Organization (WIPO). WIPO Performances and Phonograms Treaty (Original). Available at: <https://wipolex.wipo.int/en/text/295480/>.
10. O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On Copyright and Related Rights"]. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 21.04.2021, no. 03/21/683/0375, 21.08.2021, no. 03/21/709/0808.
11. Law of the Russian Federation of July 9, 1993 N 5351-1 (as amended on July 20, 2004) "On Copyright and Related Rights". Available at: http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_2238/7ab3351a6763020eaca4d-370cca514d2cdf30f69/.
12. EU copyright Directive Arts 6 and 7.
13. Marrakesh Treaty to Facilitate Access to Published Works for Persons Who Are Blind, Visually Impaired or Otherwise Print Disabled. Available at: <https://www.wipo.int/treaties/en/ip/marrakesh/>.
14. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi – National Legislative Database, 29.06.2021, no. 06/21/6252/0617.
15. Eurasian Economic Commission. Available at: <http://www.eurasiancommission.org/ru/act/finpol/dobd/intelsobs/Documents/pdf/>.
16. Yuldashov A. Mualliflik huquqini xalqaro doirada muhofaza qilishning muhim jihatlari va shartnomaviy-huquqiy bazani rivojlantirish [Important aspects of copyright protection in the international arena and the development of the legal framework]. Yuridik fanlar axborotnomasi – Vestnik yuridicheskix nauk – Review of law sciences, Special issue, 2020, p. 231.
17. Copyrights are connected to the blockchain. Rospatent opposed the creation of a competitor Available at: <https://www.kommersant.ru/doc/3966837/>.
18. Bobur M. Pravovaya ohrana obyekto v intellektualnoy sobstvennosti–zalog razvitiya predprinimatelskoy deyatel'nosti [Legal protection of an object in intellectual property is the key to the development of entrepreneurial activity]. Review of law sciences. 2020, vol. 2, Special issue.
19. Yuldashov A., Choriyev M. Dogovorno-pravoviye otnosheniya v oblasti avtorskogo prava i otvetstvennosti za narusheniye avtorskogo prava: natsionalniy i zarubejniy opit [Contractual and legal relations in the field of copyright and liability for copyright infringement: national and foreign experience]. Obshestvo i innovatsii – Society and innovation, 2020, vol. 1, no. 1/s, pp. 511–522.
20. Yuldashov A. Intellektual mulk bo'yicha milliy strategiyalarning ahamiyati va butunjahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni [The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard]. Yurist axborotnomasi – Legal information, 2020, vol. 1, no. 2, pp. 53–59.
21. Uktamjonova M., Xujayev Sh. Formi zashiti smejnix prav v telekommunikatsiyax [Form of protection of related rights in telecommunications]. Obshestvo i innovatsii – Society and innovation, 2021, vol. 2, no. 4/S, pp. 34–41.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

MAXSUS SON / 2021

I QISM

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.